

DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MASAL JANRIGA OID ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR

Aglamov Tohir Xusanovich

BuxDPI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyo adabiyotshunosligida masal janriga oid ilmiy-nazariy mulohazalar tahlilga tortilgan.

Kalit suzlar: matal, maqol, afsona, ertak, qissa, doston, allegoriya, didaktika, hikoya, obrazli ifoda.

Dunyo adabiyotshunosligida masallar, masal tipidagi asarlar bo‘yicha qator ustivor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masal so‘zining “matal” shakli haqida B.Sarimsoqov “turkiy xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llanilishi”, “u topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, hikmat aytish ma’nolarida ishlatilishi”, “termin sifatida o‘zbek folkloshunosligida paremalarning bir turini ifodalashi jihatidan differensiyalashib borayotgani”ni ta’kidlagan edi. Darhaqiqat matal so‘zi maqol bilan yonma-yon ishlatiladi va qo‘llanadi. Matal so‘zi arab tilidagi lug‘atlarda uchramaydi. “Masal-namuna, andoza, o‘xshashlik, ramzli hikoya degan ma’nolarni bildiradi. 1. Kishilarga o‘git beradigan, xulosali, kichik majoziy hikoya. 2. Matal, maqol”- deb ta’rif beriladi¹.

Masalning adabiy janr sifatida o‘ziga xos me’yor va talablari, o‘ziga xos mavzulari, uslubi va obrazlar olami bor. Uning turli talqin va formulalarini ilmiy-nazariy manbalarda topish mumkin. Shunday qilib, Sovet Entsiklopediyasida quyidagi ta’rif berilgan: “Masal - bu adabiy janr, qisqa, odatda she’riy hikoya, allegorik shaklda bo‘lib, odamlarning harakatlari va munosabatlarini satirik tarzda tasvirlaydi². Har bir xalqning chetdan so‘zlarni o‘zlashtirganda o‘z tiliga moslashtirib olishini ko‘zda tutsak, turkiy tillardagi “masal” “matal” bo‘lib qo‘llanganini aytish mumkin. “Emsal lirik-epik janr turlaridan biridir. Masal matalga yaqin, odatda she’riy hikoya, axloqiy xarakterga ega ertak, odatda kinoya yoki satirik allegoriya bilan ajralib turadi”³.

Demak, ushbu tahlildan “matal” atamasining “masal”dan kelib chiqqanligi, “matal” masalning arxaik formasi ekanini xulosa qilish mumkin. Qadimiy yahudiy tilidagi “mashal” ham asli “masal”dir. Rus tiliga bu so‘z “pritcha” deb o‘girilgan.

Masallar tarixi qadimgi dunyo bilan bog‘liq bo‘lib, uning ildizlari insoniyat tarixining ibtidosiga borib, tutashadi. Chunki qadimgi insonlar real hayotni, olamni, atrofni qiyoslar orqali anglaganlar. Mif, afsona, ertak, qissa va dostonlar zahirida qadimgi odamlarning turli qarashlari, ishonch-e’tiqodi, xayoliy tasavvurlari mavjud bo‘lsa, masallardan ko‘zlangan maqsad o‘z tajriba va malakalarini, hayotdan olgan ibratli xulosalarini keyingi avlodga namuna sifatida etkazish hisoblangan. Albatta, barcha masallar miflardan kelib chiqqan, degan fikrdan yiroqmiz. Biroq masallarining umumiy xususiyati uning qadimdan mavjudligi miflar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ibrat, o‘git, pand-nasihat, ta’lim berish funksiyasini qadimdan masallar bajargan. V.G. Belinskiy masalda boshqa she’riyat turlarining elementlari bo‘lishi mumkinligini

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 6 jildli. Toshkent.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi.2023.B-119.

² Совет энциклопедияси. — Т. 3. - Москва: "Совет энергетикаси" Тсиклопедия, 1970. Б- 640.

³ Боров Ю.Б. Эстетика кириш. - Москва.: Советский художник, 1965. Б- 328.

ia’kidlaydi⁴. Masallar – allegorik- didaktik hikoyalar hayot hodisalariga tayyor yechim holatda qo‘llangan.

Qadimgi davrda og‘zaki notqlikda masalga ko‘p bor murojaat qilingan. Sofokl, Arastu, Gesnod, Arxilok, Stexisor, Simonid, Keosskiy, Timokreont, Esxil, Aristofan, Demokrit, Prodik, Protogor, Antisfen, Diogen, Suqrot, Ksenofont, Platonlarning asarlari va nutqlarida masal keltirish yoki unga ishora qilish uchraydi. YUnon notqligida, ya’ni ilgari nutqda mavjud bo‘lib, qolip shaklda tayyor bo‘lgan, fikr isboti uchun keltiriladigan, masallardan foydalanilganini ta’kidlash joiz. Arastu “Ritorika” kitobida misol va dalillashga alohida to‘xtaladi. XX bobga “Misol va dalillash”, “Mioslning ikki turi – taqqoslash va masal (pritcha)” “Misollardan qanday va qachon foydalanish mumkin?” tagsarlavhasi qo‘yilgan bo‘lib, barcha hodisalar uchun umumiy bo‘lgan ishontirish usullariga to‘xtalishni ta’kidlaydi. Ishontirishning umumiy usllarini ikki turli ko‘rsatadi: misol va dalillash. Bunda hikmatli so‘z ham dalillashning bir qismi hisoblanadi. Arastu, misol yo‘llashga o‘xshaydi, yo‘llash esa boshlanmadir, degan fikrni bildiradi. Misolning ikki ko‘rinishi bosh: birinchisi, avval ro‘y bergan holat faktlari keltirilsa, ikkinchisi shunga o‘xshash voqeani notiq o‘zi yaratadi. Bunda notiq pritcha va masaldan foydalanishi mumkin. Faylasuf Ezop va Stexisor nutqlarida keltirilgan ikki masalni bayon qiladi.

Masalning umri XIX asrning o‘rtalariga kelib materialistik ta’limotlarning tantanasi va texnik tamaddunning keng joriy etilishi oqibatida tugadi. Darvin, Marks, Freyd va Pavlovlarning ilmiy nazariyalari, hayvonlarning yurish-turishlari sirlarini bayon etuvchi genetika, kibernetika va etologiya fanlarining vujudga kelishi jonivorlar xususidagi oldingi sodda qarashlarni chippakka chiqardi. Adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori Cheslav Milosh o‘zining uchinchi ming yillik bo‘zag‘asida yozgan “Ogohlantiruv” asarida “Bolalarning rasmlari bo‘yaladigan kitobchalarida odamlarday gapiradigan quyunchalar, kuchuklar, olmaxonlar, chigirtkalarni ko‘rgansiz. Ularning haqiqiy jonivorlar va hasharotlar bilan o‘xshashliklari bizning dunyo haqidagi qarashlarimizni haqiqiy dunyo o‘rtasidagi farqdan iboratdir”, degan edi.

Masal jahon adabiyotida boy tarixga ega bo‘lgan juda qadimiy janrdir. Masal mustaqil adabiy janr sifatida birinchi marta Qadimgi Yunonistonda, miloddan avvalgi VI asrda paydo bo‘lgan. Afsonaviy klikiyalik qul Ezopning nomi masal janri bilan abadiy bog‘langan. Uzoq vaqt davomida masal janri estetik jihatdan ahamiyatli hodisalar doirasidan tashqarida qoldi.

Masal janri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu adabiy janr doimo xalqning axloqiy va ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan. Masal mustaqil adabiy janr sifatida darrov paydo bo‘lmagan, balki murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Masallar badiiy ijodning o‘ziga xos sohasi sifatida barcha madaniy va tarixiy bosqichlarda umuminsoniy muammolarga e’tibor qaratgan va o‘z zamondoshlarining ma’naviy dunyosini dolzarbligi va satirik keskinligi bilan falsafiy idrok etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 6 jildli. Toshkent.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi.2023.B-119.
2. Sovet entsiklopediyasi. — T. 3. - Moskva: "Sovet energetikasi" Tsiklopediya, 1970. B- 640.
3. Borev Yu.B. Estetikaga kirish. - Moskva.: Sovetskiy xudojnik, 1965. B- 328.
4. Belinskiy V.G. Poli. koll. komp. - T. 8. - Moskva: SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1955.B- 728.

⁴ Белинский В.Г. Поли. колл. комп. - Т. 8. - Москва: СССР Фанлар академияси нашриёти, 1955.Б- 728.